



KADASTR  
AGENTLIGI

GEODEZIYA KARTOGRAFIYA VA  
KADASTR MUAMMOLARI

# ILMIY JURNALI



### Muassis

Kadastr agentligi huzuridagi  
“Geoinnovatsiya markazi” DUK

### Bosh muharrir

A.X.Abdullayev – t.f.d., dotsent

### Tahrir Hay’ati raisi

A.X.Abdullayev – t.f.d., dotsent

### Tahrir Hay’ati a’zolari

A.X.Abdullayev – t.f.d., dotsent

S.A.Avezbayev – i.f.d. professor

A.S.Chertovitskiy – i.f.d. professor

N.S.Xushmatov – i.f.d. professor

B.F.Sultanov – i.f.d. professor

B.M.Yunusov – i.f.d. (DSc)

R.Qurvontoyev – q.x.f.d (DSc)  
professor

M.I.Ruzmetov – q.x.f.d (DSc)  
professor

A.R.Babajanov – q.x.f.d (DSc) dotsent

R.N.Sharopov – q.x.f.d (DSc) k.i.x

B.M.Axmedov – t.f.d., professor

E.Yu.Safarov – t.f.d., professor

A.A.Saidov – t.f.d., professor

N.B.Raupova – b.f.d., professor

A.V.Allaberganov – i.f.n

M.K.Valiyev – i.f.f.d (PhD)

Sh.K.Narbayev – i.f.f.d (PhD) dotsent

O‘.B.Muxtorov – i.f.f.d (PhD) dotsent

S.N.Sadullayev – i.f.f.d (PhD)

S.B.Gaibberdiyev – q.x.f.f.d (PhD)

J.Z.Usmonov – q.x.f.f.d (PhD)

N.R.Mashrapov – q.x.f.f.d (PhD)

Z.Sh.Musurmankulov – q.x.f.f.d (PhD)

T.M.Abdullayev – t.f.n., dotsent

V.R.Niyazov – t.f.f.d (PhD) dotsent

Sh.A.Suyunov – t.f.f.d (PhD) dotsent

S.A.Karabazov – t.f.f.d (PhD) k.i.x

G.S.Sodiqova – b.f.n., dotsent

O.A.Ibragimov – g.f.f.d (PhD)

L.T.Ibragimov – g.f.f.d (PhD), dotsent

F.Kumhala – professor

### Muharrir

S.B.Gaibberdiyev – q.x.f.f.d (PhD)

### Mundarija

|    |                                                                                                                                                                                                              |     |
|----|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 1  | <b>L.Karshibayeva, H.Egamqulov.</b> , Sirdaryo viloyati aholi salomatligi ko‘rsatkichlarining hududiy-kartografik tahlili.                                                                                   | 3   |
| 2  | <b>B.M.Muslimbekov, S.N.Abduraxmonov, G.B.Qalbayeva.</b> , Masofadan zondlash ma’lumotlari asosida urbanizatsiya jarayonlari xaritalarini yaratish                                                           | 10  |
| 3  | <b>F.Sh.Xudoyberdiyev, A.S.Altiyev.</b> , Yer kadastr asosida investitsiya jarayonlari indikatorlarini hisoblashning hozirgi holati va uning ilmiy-uslubiy jihatlarini.                                      | 17  |
| 4  | <b>Sh.D.Umurzoqov.</b> , Toshkent viloyatida baliq mahsulotlari bilan ta’minlanganlik darajasining hududiy tahlili                                                                                           | 26  |
| 5  | <b>N.A.Esanov.</b> , Surxondaryo viloyati urbonimlarining o‘ziga xos jihatlarini (shaharchalar misolida)                                                                                                     | 36  |
| 6  | <b>B.M.Muslimbekov, S.N.Abduraxmonov, G.B.Qalbayeva.</b> , Shaharlashish jarayonlari va atrof-muhit sharoitlarini xaritaga olishda zamonaviy gat usullaridan foydalanish                                     | 40  |
| 7  | <b>L.Karshibayeva.</b> , Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida nozogeografik vaziyat hamda onalar va bolalar o‘limining tadrijiy o‘zgarishlari                                                                      | 47  |
| 8  | <b>K.K.Bekanov, S.A.Karabazov, O.G.Yusupjonov, Sh.Sh.Ochilov.</b> , Yer monitoring kartalarini ishlab chiqishda zamonaviy geodezik asboblardan foydalanish masalalari                                        | 52  |
| 9  | <b>F.Sh.Xudoyberdiyev.</b> , Yer kadastrining investitsiya jarayonlariga ta’siri yuzasidan muammolarni tahlil qilish va baholash                                                                             | 58  |
| 10 | <b>K.D.Xusanova.</b> , Angren shahri aholi kasalliklarining tibbiy geografik prognozi                                                                                                                        | 65  |
| 11 | <b>D.Norboyeva, M.Rajapbayev, D.Knazbaeva.</b> , Google earth engine yordamida cors stansiyalarini joylashtirish uchun ko‘p kriteriyali muvofiqlik tahlili                                                   | 72  |
| 12 | <b>H.N.Suyunova.</b> , Zax qochirish kanallarini geodezik syomka qilish va bo‘ylama hamda ko‘ndalang profilarni shakllantirishning ilmiy-amaliy asoslari                                                     | 75  |
| 13 | <b>E.Jomolov, J.A.Namozov.</b> , Aholi turmush sifatining ijtimoiy-geografik xususiyatlarini ta’lim infratuzilmasi asosida baholash (samarqand viloyati misolida)                                            | 81  |
| 14 | <b>Ю.А.Романюк, А.К.Усмонов.</b> , Оценка точности классификации землепользования и земного покрова на основе спутниковых данных на примере яшнабадского района города ташкент                               | 90  |
| 15 | <b>A.M.Ruziyev, Z.X.Nurmatova.</b> , Sherobod tumani tallashkon massivi hududi sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydoni tuproqlarining sho‘rlanish darajasi                                              | 96  |
| 16 | <b>G‘.A.Artikov, A.A.Nomozov.</b> , Chiqindi poligonlari holatini gat texnologiyasi asosida baholash                                                                                                         | 100 |
| 17 | <b>G‘.A.Artikov, U.A.Berdikulov.</b> , Qishloq xo‘jaligi yerlari monitoringini masofadan zondlash va geomaxsus texnologiyalar asosida takomillashtirish                                                      | 107 |
| 18 | <b>O.A.Umirzaqov.</b> , Sirdaryo viloyatida tuproq sho‘rlanish dinamikasiga ta’sir etuvchi ayrim omillarning gat tahlili                                                                                     | 111 |
| 19 | <b>N.K.Komilova, M.Z.Xamidova.</b> , Qashqadaryo viloyati tarixiy-madaniy turistik manzilgothlarining innovatsion turizm kartasini yaratishning ahamiyati                                                    | 115 |
| 20 | <b>A.A.Kutlimuratov, M.T.Mirakmalov.</b> , Xorazm viloyati gidronimlarining tabiiy geografik xususiyatlari va toponimlarni gis asosida xaritalash imkoniyatlari                                              | 122 |
| 21 | <b>O.R.Allanazarov, U.A.Karabekov, Z.A.Axmedova, M.M.Tuxtayeva.</b> , Forish tumani mevazor bog‘larining vegetatsion holatini ndvi, evi va savi indeklari asosida monitoring qilish                          | 132 |
| 22 | <b>N.K.Komilova, K.D.Xusanova.</b> , Angren shahrining nozogeografik vaziyati va aholi salomatligi muammolari                                                                                                | 139 |
| 23 | <b>N.A.Esanov.</b> , Surxondaryo viloyati shaharchalarining rivojlanishiga transport yo‘llarining ta’siri                                                                                                    | 144 |
| 24 | <b>O.R.Allanazarov, U.A.Karabekov, Z.A.Axmedova, M.M.Tuxtayeva.</b> , Tabiiy va texnogen jarayonlarni masofadan zondlash materiallarini qayta ishlash asosida dinamik tadqiq qilish algoritmi ishlab chiqish | 148 |



Ilmiy jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 31.10.2023-yilda № 153041-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Ilmiy jurnal Oliy attestatsiya komissiyasining 2025-yil 12-fevraldagi 367/5-sonli qarori bilan ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**Manzil:** Toshkent shahar Chilonzor tumani Bunyodkor shox ko‘chasi 28

Jurnalda chop etilgan maqolaning to‘g‘riligiga va ishonchliligiga hamda unda keltirilgan ma’lumotlarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

UO‘K 911.3:639.3(575.1)

## TOSHKENT VILOYATIDA BALIQ MAHSULOTLARI BILAN TA‘MINLANGANLIK DARAJASINING HUDUDIIY TAHLILI

Umurzoqov Shaxzodbek Dilmurod o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Maqolada Toshkent viloyati tumanlarida baliq mahsulotlari bilan ta‘minlanganlik darajasi iqtisodiy-geografik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Asosiy e‘tibor tumanlar bo‘yicha yetishtirilgan baliq hajmi, aholi soni, jon boshiga to‘g‘ri keladigan baliq miqdori hamda Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti(WHO)ning har bir inson uchun 16 kg/yil me‘yoriy chegarasi asosidagi ta‘minlanganlik ko‘rsatkichlariga qaratilgan. Ishda statistik hisoblash, hududiy qiyoslash, guruhlash hamda bozorga yaqinlik, infratuzilma va ekologik omillar bo‘yicha 1-3 ballik ekspert baholash usuli qo‘llanilgan. Viloyat hududida baliq yetishtirish, baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish va aholining ta‘minlanishi keskin hududiy tafovutlarga ega ekani, yuqori natijalar asosan Quyi Chirchiq, O‘rta Chirchiq va Yangiyo‘l tumanlarida jamlangani, tog‘oldi va tog‘li, urbanizatsiyalashgan hamda ekologik cheklavlarga ega hududlarda esa ko‘rsatkichlar pastligi aniqlangan. Bundan tashqari tumanlar to‘rtta funksional zonaga ajratilib, har bir zona uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Аннотация.** В статье проведён экономико-географический анализ уровня обеспеченности рыбной продукцией в районах Ташкентской области. Основное внимание уделено объёму производства рыбы по районам, численности населения, показателям потребления рыбы на душу населения, а также уровню обеспеченности на основе нормативного показателя Всемирной организации здравоохранения (WHO) - 16 кг в год на человека. В работе применены методы статистического расчёта, территориального сравнения, группировки, а также экспертной оценки (по шкале 1-3 балла) факторов рыночной доступности, инфраструктуры и экологических условий. Установлено, что производство рыбы, выпуск рыбной продукции и уровень обеспеченности населения в области характеризуются значительными территориальными различиями. Наиболее высокие показатели зафиксированы в Куйичирчикском, Уртачирчикском и Янгиюльском районах, тогда как в предгорных и горных, урбанизированных территориях, а также в районах с экологическими ограничениями показатели остаются низкими. Кроме того, районы были классифицированы на четыре функциональные зоны, для каждой из которых разработаны практические рекомендации.

**Abstract.** This article presents an economic-geographical analysis of the level of fish product provision across the districts of Tashkent region. The study focuses on fish production volume by district, population size, per capita fish consumption, and the level of provision based on the World Health Organization (WHO) recommended norm of 16 kg per person per year. The research applies statistical calculation, territorial comparison, grouping methods, and expert assessment (on a 1-3 scale) of market accessibility, infrastructure, and environmental factors. The findings reveal significant territorial disparities in fish production, fish product output, and population provision levels within the region. The highest indicators are observed in Kuyi Chirchik, Urta Chirchik, and Yangiyul districts, while lower levels are characteristic of foothill and mountainous areas, urbanized territories, and regions with environmental constraints. Additionally, the districts were classified into four functional zones, and practical recommendations were developed for each zone.

**Kalit so‘zlar.** baliqchilik, akvakultura, ta‘minlanganlik indeksi, hududiy tafovut, bozorga yaqinlik, infratuzilma, ekologik omillar, Toshkent viloyati, tumanlar kesimida tahlil.

**Ключевые слова.** рыбное хозяйство, аквакультура, индекс обеспеченности, территориальные различия, рыночная доступность, инфраструктура, экологические факторы, Ташкентская область, районный анализ.

**Keywords.** fisheries, aquaculture, provision index, territorial disparity, market accessibility, infrastructure, environmental factors, Tashkent region, district-level analysis.

**Kirish.** Bugungi kunda oziq – ovqat xavfsizligini ta‘minlash, oqsil manbalarini

diversifikatsiya qilish va hududlar kesimida ratsional ovqatlanish tarkibini shakllantirish

masalalari iqtisodiyotning dolzarb masalalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Akvakultura va tabiiy suv resurslarida yetishtiriladigan oqsilga boy mahsulotlar, ayniqsa baliq va baliq mahsulotlari, aholining sog‘lom ovqatlanish tizimida muhim o‘rin tutadi. Shu bois baliqchilik faqat agrar ishlab chiqarish tarmog‘i sifatida emas, balki hududiy ixtisoslashuv, ichki bozorlarning to‘yinishi, logistika va iste‘mol geografiyasini bog‘lovchi murakkab ijtimoiy – iqtisodiy tizim sifatida o‘rganilmoqda [3].

O‘zbekiston Respublikasida baliqchilik sohasini jadallashtirish, suv havzalaridan samarali foydalanish, intensiv akvakultura texnologiyalarini joriy etish, qayta ishlash va sotish zanjirini mustahkamlash masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Xususan, 06.11.2018 – yildagi “Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora – tadbirlar” to‘g‘risidagi PQ – 4005 sonli qarorda baliqchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirish, innovatsion usullarni joriy etish va suv havzalaridan ilmiy yondashuv asosida foydalanish zarurligi [1], 29.08.2020 – yildagi “Baliqchilik tarmog‘ini qo‘llab – quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 4816 – sonli qarorida esa tarmoqni moliyaviy qo‘llab – quvvatlash, akvakultura loyihalari uchun kompensatsiya mexanizmlari hamda savdo – logistika infratuzilmasini rivojlantirish masalalari qayd etilgan [2]. Ushbu yo‘nalishlar qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo‘ljallangan strategik vazifalari bilan ham uyg‘unlashadi [5].

Biroq, tarmoq bo‘yicha qabul qilingan tashkiliy va iqtisodiy chora – tadbirlarning hududlar bo‘yicha natijasi bir xil emas. Ayrim tumanlarda baliq yetishtirish hajmi aholi ehtiyojini nafaqat qoplaydi, balki qo‘shni bozorlarga chiqarishga ham imkon beradi; boshqa tumanlarda esa ko‘rsatkichlar juda past bo‘lib, iste‘mol asosan tashqi oqimlar hisobiga shakllanadi. Demak, masalani faqat ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki hududning bozorga yaqinligi,

transport va irrigatsiya infratuzilmasi, tabiiy – ekologik sharoiti bilan uyg‘un holda tahlil qilish talab etiladi [7].

Toshkent viloyati bu jihatdan alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Bir tomondan, u mamlakatning eng yirik iste‘mol hududi – Toshkent shahri aglomeratsiyasi bilan bevosita bog‘langan. Ikkinchi tomondan esa, viloyat ichida tekislik, adir, tog‘oldi va tog‘li hududlar, shuningdek, sanoatlashgan, qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan va urbanizatsiyalashgan tumanlar birgalikda mavjud. Shu sababli baliqchilikning hududiy joylashuvi, tabiiy resurslar bilan ta‘minlanganligi va bozor aloqalarining intensivligi tumanlar kesimida keskin farqlanadi [9].

Tadqiqotning maqsadi Toshkent viloyati tumanlarida baliq mahsulotlari bilan ta‘minlanganlik darajasini baholash, hududiy tafovutlarni aniqlash va ularni bozorga yaqinlik, infratuzilma hamda ekologik omillar bilan izohlashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo‘yildi:

- a) tumanlar bo‘yicha aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan baliq va baliq mahsulotlarining miqdori va ta‘minlanganlik darajasini hisoblash;
- b) yetakchi va orqada qolayotgan hududlarni aniqlash;
- c) tumanlarni iqtisodiy – geografik omillar bo‘yicha qiyoslash;
- d) hududiy rivojlantirishning amaliy yo‘nalishlarini ishlab chiqish.

**Adabiyotlar tahlili.** Jahon miqyosida akvakultura va baliqchilik sohasining oziq-ovqat xavfsizligidagi o‘rni muntazam ortib bormoqda. BMTning “Oziq – ovqat va qishloq xo‘jaligi” (FAO) tashkiloti tomonidan 2024 – yil so‘ngida taqdim etilgan “Dunyo baliqchiligi va akvakultura holati” (SOFIA – 2024) hisobotida akvakultura va tabiiy suv resurslaridan olinadigan oziq – ovqatlar global oziq – ovqat xavfsizligi, barqarorlik, ilmiy innovatsiyalar va boshqaruv qarorlarida tobora muhimroq o‘rin egallayotgani qayd etiladi [3]. Bu holat ichki bozorlarni hududiy tahlil qilish, ishlab

chiqarish va iste'mol o'rtasidagi nomutanosibliklarni aniqlash zaruratini kuchaytiradi [12].

Xalqaro adabiyotlarda akvakultura oziq – ovqat xavfsizligi kun tartibining muhim, ammo ko'pincha yetarlicha baholanmagan tarkibiy qismi ekani ta'kidlanadi [10]. Bjørndal va boshqalar esa 2030 – yilgacha bo'lgan istiqbolda aynan akvakultura kelajakdagi taklif va oziq-ovqat xavfsizligining muhim drayveriga aylanishini qayd etadi [11]. O'zbekiston sharoitida baliqchilik bo'yicha tadqiqotlarning katta qismi asosan tarmoqni rivojlantirish, intensiv texnologiyalarni joriy qilish, suv havzalaridan foydalanish samaradorligi, yem bazasi va xo'jaliklarning iqtisodiy natijadorligi masalalariga qaratilgan. Biroq tumanlar kesimida aholi jon boshiga ta'minlanganlik, ichki hududiy iste'mol bozorlariga yaqinlik, logistika imkoniyatlari va ekologik cheklovlarni integrallashgan holda baholash masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan [1].

Iqtisodiy geografik yondashuvning ustun tomoni shundaki, u ishlab chiqarishning mutlaq hajmini emas, balki hududning funksional o'rnini ko'rsatadi. Masalan, bozorga nihoyatda yaqin bo'lgan tuman yuqori iste'mol bozori ta'sirida kuchli talabga ega bo'lishi mumkin, biroq yer resurslari va urbanizatsiya bosimi sabab ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qoladi. Aksincha, irrigatsion hududlarda joylashgan, yirik suv tarmoqlariga yaqin, lekin markazdan nisbatan uzoqroq tumanlarda ishlab chiqarish ko'lami kattaroq bo'lishi ehtimoli yuqori [11].

Shu bois ushbu maqolada hududiy differentsiallashtirishni faqat statistik ko'rsatkich bilan emas, balki uch omilli – bozorga yaqinlik, infratuzilma va ekologik qulaylik mezonlari orqali tahlil qilish maqsad qilindi. Bunday usul baliqchilikni rivojlantirish strategiyasini hududiy rejalashtirish vositasiga aylantirish imkonini beradi [6].

**Tadqiqot metodologiyasi.**  
 Tadqiqotning asosiy axborot bazasini

Toshkent viloyati tumanlari bo'yicha yetishtirilgan baliq hajmi (tonna), aholi soni (ming kishi), aholi jon boshiga to'g'ri keladigan baliq miqdori (kg) va baliq mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasi (%) tashkil etadi. Mazkur darajalarda viloyat bo'yicha umumiy ko'rsatkich 2025 – yil hisobiga 21 691,9 tonna, aholi soni 3 108,5 ming kishi, jon boshiga baliq miqdori 7,0 kg va ta'minlanganlik darajasi 43,75 % ekanligi ko'rsatilgan [4].

Hisoblashlarda quyidagi yondashuvdan foydalanildi. Birinchidan, tuman bo'yicha jon boshiga to'g'ri keladigan baliq miqdori  $Bt = Qt / At$  formulasi asosida olindi, bunda;

**Qt** - tuman bo'yicha baliq ishlab chiqarish hajmi (tonna)

**At** - aholi soni (ming kishi)

Mazkur birliklarda ifodalanganda natija to'g'ridan – to'g'ri kg/odam ko'rinishida olinadi. Ikkinchidan, ta'minlanganlik darajasi  $St = (Bt / 16) \times 100$  formulasi asosida baholandi. Bu yerda 16 kg/yil ko'rsatkich tadqiqot uchun me'yoriy chegara sifatida qabul qilindi [4].

Uchinchidan, tumanlarning iqtisodiy-geografik sharoitlarini qamrab olish uchun 1 – 3 ballik ekspert baholash joriy etildi: 1 ball – past, 2 ball – o'rta, 3 ball – yuqori qulaylikni anglatadi. Bozorga yaqinlik mezonida tumanlarning Toshkent shahri, Chirchiq, Angren, Olmaliq, Bekobod va boshqa yirik iste'mol markazlariga nisbatan joylashuvi hisobga olindi. Infratuzilma mezonida avtomobil va temir yo'l aloqalari, sug'orish tarmoqlari, logistika imkoniyatlari hamda ishlab chiqarish maydonlarining transport-geografik qulayligi e'tiborga olindi. Ekologik omilda esa rel'ef, suv manbalari, suv – havo rejimi, urbanizatsiya va sanoat bosimi, suv havzalarini kengaytirish imkoniyati kabi holatlar baholandi [8].

Baholash natijalari statistik ko'rsatkichlar bilan birgalikda talqin qilinib, tumanlar to'rtta funksional guruhga ajratildi:

- yuqori ixtisoslashgan zona;
- rivojlanayotgan zona;

➤ salohiyati mavjud, ammo sust rivojlangan zona;

➤ hamda cheklangan salohiyatli zona.

Bu guruhlash qat’iy matematik reyting emas, balki statistik natijalarni iqtisodiy – geografik sharhlash uchun xizmat qiluvchi amaliy tipologiyadir.

Shaharlar – Nurafshon, Angren, Bekobod, Ohangaron, Olmaliq, Chirchiq va Yangiyo‘l shaharlari – ishlab chiqaruvchi tumanlardan ko‘ra ko‘proq iste‘mol va savdo nuqtalari sifatida talqin qilindi. Baliq mahsulotlari bilan ta‘minlanganlik jadvalda ularning baliq yetishtirish (ovlash) ko‘rsatkichi deyarli nol darajada bo‘lgani uchun ular tumanlar tipologiyasiga kiritilmadi, biroq bozorga yaqinlik omilini izohlashda muhim talab markazlari sifatida hisobga olindi [9].

**Tahlil va natijalar.** Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Toshkent viloyatida baliq ishlab chiqarish va aholining ta‘minlanganlik darajasi juda yuqori darajada hududiy kontsentratsiyaga ega. Viloyat bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 43,75 % bo‘lsa-da, alohida tumanlar kesimida bu ko‘rsatkich 0,6 % dan 265 % gacha tebranadi [1-jadval]. Bunday katta tafovut hududning ichki tabiiy, iqtisodiy va demografik xilma – xilligi bilan izohlanadi [1-rasm].

Eng yuqori natijalar Yangiyo‘l, Quyi Chirchiq va O‘rta Chirchiq tumanlariga to‘g‘ri keladi. Yangiyo‘l tumanida jon

boshiga 42,4 kg baliq to‘g‘ri kelib, ta‘minlanganlik darajasi 265 foizni tashkil etgan. Quyi Chirchiqda mos ravishda 30,3 kg va 189,3 %, O‘rta Chirchiqda esa 16,4 kg va 102,5 % qayd etilgan [1-jadval]. Bu tumanlar nafaqat viloyat ichki talabini, balki qo‘shni shahar hududlar uchun ham yetkazib beruvchi hududlar sifatida namoyon bo‘ladi [1-rasm].

Ishlab chiqarishning hududiy kontsentratsiyasi nihoyatda yuqori ekani ham muhim hisoblanadi. Hisob – kitoblarga ko‘ra, Yangiyo‘l, Quyi Chirchiq, O‘rta Chirchiq va Bekobod tumanlari jami baliq yetishtirishning qariyb 84,9 foizini beradi [1-jadval]. Demak, viloyatning baliqchilik tizimi ko‘p markazli emas, balki bir nechta kuchli tayanch hududlar ustiga qurilgan [3-rasm]. Bunday tuzilma logistika jihatidan qulay bo‘lishi mumkin, biroq bozor xavfi va ishlab chiqarish tavakkalchiligini makonda jamlab qo‘yadi.

Bekobod tumani 11,6 kg/odam va 72,5 % ko‘rsatkich bilan me‘yoriy chegaraga yaqinlashgan ikkinchi yetakchi hudud hisoblanadi [1-jadval]. Uning ustun tomoni Sirdaryo havzasi bilan bog‘liqligi, sanoat va transport yo‘nalishlari bilan integratsiyasi hamda janubiy bozorlar bilan aloqadorligidir [2-jadval]. Shu bilan birga, ta‘minlanganlik hali 100 foizdan past ekani tuman salohiyati to‘liq ishga solinmaganini ko‘rsatadi.

**1-jadval**

**Toshkent viloyati tumanlarida baliq mahsulotlari bilan ta‘minlanganlik ko‘rsatkichlari**

| Tumanlar      | Yetishtirilgan baliq, (tonna) | Aholi, ming kishi | Jon boshiga, kg | Ta‘minlanganlik(%) |
|---------------|-------------------------------|-------------------|-----------------|--------------------|
| Oqqo‘rg‘on    | 470.1                         | 114.0             | 4.12            | 25.75              |
| Ohangaron     | 38.6                          | 113.0             | 0.34            | 2.12               |
| Bekobod       | 1950.7                        | 168.2             | 11.6            | 72.5               |
| Bo‘stonliq    | 103.9                         | 178.1             | 0.6             | 3.75               |
| Bo‘ka         | 503.8                         | 136.7             | 3.7             | 23.12              |
| Quyi Chirchiq | 5324.0                        | 175.6             | 30.3            | 189.3              |
| Zangiota      | 856.6                         | 178.7             | 4.8             | 30                 |

| Tumanlar        | Yetishtirilgan baliq, (tonna) | Aholi, ming kishi | Jon boshiga, kg | Ta'minlanganlik(%) |
|-----------------|-------------------------------|-------------------|-----------------|--------------------|
| Yuqori Chirchiq | 117.0                         | 117.7             | 0.99            | 6.2                |
| Qibray          | 124.4                         | 182.0             | 0.68            | 4.25               |
| Parkent         | 9.3                           | 103.4             | 0.09            | 0.6                |
| Pskent          | 294.4                         | 140.4             | 2.1             | 13.1               |
| O'rta Chirchiq  | 2430.9                        | 148.2             | 16.4            | 102.5              |
| Chinoz          | 627.1                         | 141.7             | 4.4             | 27.5               |
| Yangiyo'l       | 8648.1                        | 203.9             | 42.4            | 265                |
| Toshkent        | 131.9                         | 204.1             | 0.64            | 4                  |


Manba: Toshkent viloyati statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Zangiota, Chinoz, Oqqo'rg'on va Bo'ka tumanlari o'rta natijali guruhni tashkil etadi. Jumladan Zangiotada jon boshiga 4,8 kg, Chinozda 4,4 kg, Oqqo'rg'on 4,12 kg, Bo'kada 3,7 kg baliq to'g'ri keladi; ularning ta'minlanganlik darajasi 23,12 % dan 30 % gacha bo'lgan oralig'ida [1-jadval]. Bu

tumanlar ichida ayniqsa Chinoz va Oqqo'rg'on tabiiy – suv sharoiti va tekislik relyefi sabab istiqbolli ko'rinadi, Zangiotada esa bozorga yaqinlik nihoyatda yuqori bo'lsa-da, urbanizatsiya bosimi va yerning boshqa funksiyalar bilan bandligi ishlab chiqarish ko'lamini cheklamoqda [2-jadval].

**1-rasm**

### Baliq mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasi (WHO 16 kg me'yori bo'yicha)



Eng past natijalar Parkent, Ohangaron, Bo‘stonliq, Qibray, Toshkent va Yuqori Chirchiq tumanlarida kuzatiladi. Parkentda ta‘minlanganlik atigi 0,6 %, Ohangaronda 2,12 %, Bo‘stonliqda 3,75 %, Qibrayda 4,25 %, Toshkent tumanida 4 %, Yuqori Chirchiqda 6,2 foizni tashkil etadi [1-jadval]. Ushbu ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, baliq mahsulotlariga bo‘lgan ichki ehtiyoj asosan boshqa tumanlardan olib kirish hisobiga qoplanadi [2-jadval].

Past ko‘rsatkichli tumanlar bir xil tabiatga ega emas. Parkent va Bo‘stonliq tog‘oldi va tog‘li hududlar bo‘lib, bu yerda relyef murakkabligi, suv harorat rejimi va sun‘iy hovuzlar maydonini kengaytirish cheklangan. Ohangaron va qisman Toshkent hamda Qibray tumanlarida esa muammo tabiiydan ko‘ra funksional xarakterga ega: sanoat, xizmat ko‘rsatish va turar joy qurilishi ustuvor bo‘lgani bois akvakultura uchun yer va suv resurslarini yirik masshtabda safarbar etish qiyinlashadi [2-jadval].

Bozorga yaqinlik omili alohida talqinni talab qiladi. Odatda yirik bozorlarga yaqin hududlarda ishlab chiqarish yuqori bo‘lishi kutiladi. Biroq Qibray, Toshkent va qisman Zangiota misolida bozorga yaqinlikning o‘zi yetarli emasligi ko‘rinadi. Qibray va Toshkent tumanlarida kuchli iste‘mol bozori mavjud bo‘lsa-da, yirik sanoat va turar joy masshtabining kengayishi, yerlarning qimmatligi hamda shahar landshaftlarining ustuvorligi sabab baliq yetishtirish hajmi past. Demak, bozor omili faqat talabni shakllantiradi, biroq ishlab chiqarishning yuqori bo‘lishi uchun infratuzilma va ekologik qulaylik bilan uyg‘unlashishi zarur [2-jadval], [2-rasm].

Mazkur tafovut 1-rasmda yaqqol ko‘rinadi: 100 foizdan yuqori bo‘lgan tumanlar me‘yoriy chegaradan oshgan

tayanch hududlarni, 100 foizdan ancha past bo‘lgan tumanlar esa ichki ta‘minotda tashqi oqimlarga ko‘proq tayanuvchi hududlarni ifodalaydi.

Infratuzilma omili Yangiyo‘l, Quyi Chirchiq, O‘rta Chirchiq va Bekobod tumanlarida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu hududlarda magistral yo‘llarga yaqinlik, irrigatsiya tarmoqlarining shakllangani, logistika zanjiriga tez ulanish va mahsulotni qisqa muddatda bozorga yetkazish imkoniyati mavjud. Aynan shu omil ishlab chiqarishning yuqori ko‘lamini iqtisodiy jihatdan samarali qiladi. Aksincha, Bo‘stonliq, Parkent va qisman Ohangaronda ishlab chiqarish infratuzilmasining mayda, tarqoq va yuqori xarajatli bo‘lishi yirik akvakultura loyihalari uchun to‘siq bo‘lib turadi [2-jadval], [2-rasm].

Ekologik omillar ham sezilarli rol o‘ynaydi. Tekis, irrigatsiyalashgan va suv bilan ta‘minlanishi nisbatan barqaror hududlar – Quyi Chirchiq, O‘rta Chirchiq, Yangiyo‘l, Chinoz, Oqqo‘rg‘on – baliq yetishtirish uchun qulayroq. Tog‘li hududlarda esa suvning sovuqligi, maydonning parchalanganligi, nishablik va rekreatsion funksiyaning ustuvorligi akvakultura masshtabini cheklaydi. Sanoatlashgan hududlarda, xususan Ohangaronda, ekologik bosim va suv sifati bilan bog‘liq tavakkalchiliklar ham inobatga olinishi kerak [2-jadval], [2-rasm].

Tumanlar bo‘yicha yakka tartibdagi iqtisodiy – geografik tavsif quyidagicha umumlashtiriladi. Yangiyo‘l tumani viloyatning asosiy tayanch baliqchilik hududi bo‘lib, bozorga juda yaqin, transport va irrigatsiya infratuzilmasi rivojlangan, ekologik sharoiti esa tekislik akvakulturasini uchun qulay. Quyi Chirchiq tumani ham xuddi shunday tayanch zonadir; uning ustunligi katta ishlab chiqarish maydoni, kuchli logistika va barqaror suv ta‘minoti bilan bog‘liq. O‘rta Chirchiq tumani me‘yoriy chegaradan oshgan ko‘rsatkichga

ega bo‘lib, intensiv rivojlanish uchun poydevorga ega [2-jadval].

Bekobod tumani ikkilamchi tayanch hudud sifatida ajralib turadi; bunda Sirdaryo havzasi va transport yo‘nalishlari muhim rol o‘ynaydi. Chinoz tumani esa me‘yoriy ta‘minlanganlik bo‘yicha o‘rta guruhda bo‘lsada, ekologik va infratuzilmaviy nuqtai nazardan yuqori salohiyatga ega bo‘lib, kelajakda viloyatning janubiy baliqchilik tuguniga aylanishi mumkin. Oqqo‘rg‘on tumani ham shunga yaqin tavsifga ega, biroq bozorlar bilan bog‘lanish va logistika tarmog‘ini kuchaytirish talab etiladi. Zangiota tumanida talab bozori juda kuchli, ammo shaharlashuv bosimi sabab baliq yetishishi va baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish nisbatan cheklangan; bu yerda ko‘proq qayta ishlash, sovutish va ulgurji taqsimlash funksiyalarini kuchaytirish maqsadga muvofiq [2-jadval].

Bo‘ka va Pskent tumanlari statistik ko‘rsatkich bo‘yicha o‘rta – past guruhga

kiradi. Bo‘kada ishlab chiqarish yomon emas, ammo bozor markazlaridan nisbatan uzoqroq joylashuvi, logistika xarajatlari va kooperatsiya darajasining yetarli emasligi umumiy natijani pasaytiradi. Pskentda esa tabiiy va xo‘jalik sharoiti o‘rtacha bo‘lib, mayda xo‘jaliklar asosida ishlab chiqarish kengaytirilishi mumkin, biroq tarmoqni intensivlashtirish uchun infratuzilmaviy investitsiya zarur [2-jadval].

Yuqori Chirchiq, Qibray va Toshkent tumanlari bir qarashda salohiyatli ko‘ringan hududlardir: ular bozorga yaqin, transport tarmoqlariga ulangan. Shunga qaramay, ularning ta‘minlanganlik ko‘rsatkichlari juda past. Bu holat urbanizatsiya, yerning alternativ foydalari yuqoriligi, akvakultura uchun ajratiladigan maydonning cheklanganligi va ishlab chiqarishning yetarli darajada institutsional qo‘llab – quvvatlanmaganligidan dalolat beradi [2-jadval].

**2-jadval**

**Tumanlarning bozorga yaqinlik, infratuzilma va ekologik omillar bo‘yicha ekspert bahosi**

| Tumanlar        | Ta‘minlanganlik, % | Bozor | Infratuzilma | Ekologiya | Zona                   |
|-----------------|--------------------|-------|--------------|-----------|------------------------|
| Oqqo‘rg‘on      | 25.75              | 2     | 2            | 3         | Rivojlanayotgan        |
| Ohangaron       | 2.12               | 2     | 2            | 1         | Cheklangan salohiyatli |
| Bekobod         | 72.5               | 2     | 3            | 2         | Rivojlanayotgan        |
| Bo‘stonliq      | 3.75               | 2     | 1            | 1         | Cheklangan salohiyatli |
| Bo‘ka           | 23.12              | 2     | 2            | 2         | Cheklangan salohiyatli |
| Quyi Chirchiq   | 189.3              | 3     | 3            | 3         | Yuqori ixtisoslashgan  |
| Zangiota        | 30                 | 3     | 3            | 2         | Rivojlanayotgan        |
| Yuqori Chirchiq | 6.2                | 3     | 2            | 2         | Salohiyatli, ammo sust |
| Qibray          | 4.25               | 3     | 3            | 2         | Salohiyatli, ammo sust |
| Parkent         | 0.6                | 2     | 1            | 1         | Cheklangan salohiyatli |
| Pskent          | 13.1               | 2     | 2            | 2         | Cheklangan salohiyatli |
| O‘rta Chirchiq  | 102.5              | 3     | 3            | 3         | Yuqori ixtisoslashgan  |
| Chinoz          | 27.5               | 2     | 3            | 3         | Rivojlanayotgan        |

| Tumanlar  | Ta'minlanganlik,<br>% | Bozor | Infratuzilma | Ekologiya | Zona                   |
|-----------|-----------------------|-------|--------------|-----------|------------------------|
| Yangiyo'l | 265                   | 3     | 3            | 3         | Yuqori ixtisoslashgan  |
| Toshkent  | 4                     | 3     | 3            | 2         | Salohiyatli, ammo sust |

**Izoh:** 1 - past, 2 - o'rta, 3 - yuqori. Bozor, infratuzilma va ekologiya ko'rsatkichlari iqtisodiy – geografik ekspert baholash asosida aniqlangan. Funksional guruhlash ta'minlanganlik indeksi hamda omillar kombinatsiyasi asosida tuzilgan.


Demak, mazkur tumanlarda baliqchilikni keng ko'lamda emas, balki yuqori qo'shilgan qiymatli, yopiq suv aylanma tizimlari yoki qayta ishlash – logistika markazlari orqali rivojlantirish maqsadga muvofiq [2-jadval], [2-rasm].

Bo'stonliq, Parkent va Ohangaron tumanlari esa cheklangan salohiyatli hududlardir. Bo'stonliqda tog'li landshaft va rekreatsion yo'nalish ustuvor bo'lgani uchun ommaviy hovuzli akvakultura emas, balki rekreatsion baliqchilik, sport baliqchiligi

yoki sovuq suvga mos qimmatbaho ammo kamhosi mahsulotlar iqtisodiy jihatdan ma'qulroq. Parkentda meva – sabzavotchilik va bog'dorchilikning ustunligi, relyefning parchalanishi va kichik suv havzalari baliqchilikni cheklaydi. Ohangaronda esa sanoatlashgan tuzilma va ekologik tavakkalchiliklar sabab keng ko'lamli baliq yetishtirish emas, balki sanitariya nazorati kuchli bo'lgan intensiv, kichik hajmli loyihalar afzal [2-jadval].

**2-rasm**

**Bozorga yaqinlik, infratuzilma va ekologik omillar bo'yicha kompleks baho**



Shaharlar bo'yicha ma'lumotlar viloyatning yana bir muhim xususiyatini ko'rsatadi. Nurafshon, Angren, Ohangaron, Olmaliq, Chirchiq va Yangiyo'l shaharlarida mahalliy ishlab chiqarish deyarli yo'q darajada, lekin ular yirik iste'mol markazlari hisoblanadi [4]. Bu holat ishlab chiqarish va iste'mol markazlari o'rtasidagi hududiy bog'liqlikni [3-rasm]da ko'rsatilgan kontsentratsiya bilan birga talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.

Bu holat tumanlararo va hududlararo logistika tizimining ahamiyatini oshiradi. Baliqchilik geografiyasida ishlab chiqaruvchi hamda iste'molchi o'rtasidagi masofa, sovuq zanjirning sifati va ulgurji savdo tugunlari hududiy samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Demak, viloyatdagi umumiy past ta'minlanganlik muammosi ishlab chiqarish hajmining yetarli emasligidan ko'ra ko'proq uning makonda nomutanosib taqsimlanganligi bilan bog'liq [1-jadval], [3-rasm]. Uchta tuman me'yoriy darajadan yuqori natijaga ega bo'lsa-da, ko'pchilik tumanlarda ko'rsatkich juda past. Bu esa hududiy rejalashtirishda ikki parallel vazifani yuzaga chiqaradi:


birinchisi, ishlab chiqaruvchi tayanch zonalarni samarali kengaytirish;

ikkinchisi, past ta'minlangan hududlarda logistika, qayta ishlash va maqsadli kichik akvakultura loyihalari orqali ta'minot tizimini yaxshilash.

### 3-rasm

#### Baliq ishlab chiqarishning tumanlar bo'yicha hududiy taqsimoti va kontsentratsiyasi

Toshkent viloyatida ovlangan va yetishtirilgan baliq mahsulotlarining hududiy taqsimoti



**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalari Toshkent viloyatida baliq mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasi bir xil emasligini, aksincha u keskin hududiy tafovutlarga ega ekanini ko'rsatdi. Viloyat bo'yicha o'rtacha

43,75 % ko'rsatkich me'yoriy darajadan ancha past bo'lsa, Yangiyo'l, Quyi Chirchiq va O'rta Chirchiq tumanlari 100 foizdan yuqori natija ko'rsatib, hududiy tayanch

zonalar sifatida namoyon bo‘ldi [1-jadval], [1-rasm].

Ikkinchi muhim xulosa shuki, ishlab chiqarishning yuqori bo‘lishi faqat bozorga yaqinlik bilan belgilanmaydi. Bozorga yaqin, biroq urbanizatsiyalashgan Qibray va Toshkent tumanlarida ko‘rsatkichlar past, aksincha irrigatsiya va logistika jihatdan qulay tekislik hududlarida ishlab chiqarish yuqori. Demak, baliqchilik geografiyasida bozor omili infratuzilma va ekologik qulaylik bilan uyg‘unlashgandagina samara beradi [2-jadval], [2-rasm].

Uchinchi xulosa – viloyatda baliq ishlab chiqarishning konsentratsiya darajasi yuqori. Top 4 tuman ulushi qariyb 84,9 foizni tashkil etadi [1-jadval], [3-rasm]. Bu esa tarmoq barqarorligini ta‘minlash uchun ikkinchi darajali tayanch hududlarni shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Chinoz, Oqqo‘rg‘on, Zangiota va qisman Bo‘ka hamda Pskent tumanlari ana shunday o‘sinh nuqtalari bo‘lishi mumkin.

Amaliy jihatdan quyidagi takliflar ilgari suriladi.

✓ Birinchidan, Yangiyo‘l - Quyi Chirchiq - O‘rta Chirchiq o‘qida yiriklashtirilgan baliqchilik klaster logistikasini, yem bazasi, inkubatsiya va sovuq zanjir tizimini kuchaytirish zarur;

✓ Ikkinchidan, Bekobod va Chinoz tumanlarida janubiy va janubi - g‘arbiy iste‘mol bozorlariga xizmat qiluvchi ikkilamchi qayta ishlash va ulgurji taqsimlash markazlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq;

✓ Uchinchidan, Zangiota, Qibray va Toshkent tumanlarida yer resurslari tanqisligini inobatga olib, yopiq suv aylanma tizimlari, intensiv minifermalar va qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalarni ko‘paytirish lozim.

✓ To‘rtinchidan, Bo‘stonliq, Parkent va Ohangaron kabi cheklangan salohiyatli hududlarda ommaviy hovuzli akvakultura emas, balki rekreatsion baliqchilik, maxsus nishe mahsulotlar, kichik hajmli intensiv xo‘jaliklar va nazoratli ekologik loyihalarga urg‘u berish maqsadga muvofiq.

✓ Beshinchidan, shaharlar kesimida – ayniqsa Nurafshon, Chirchiq, Olmaliq, Angren va Yangiyo‘l shaharlarida – sovutish omborlari, ulgurji taqsimlash maydonchalari va tezkor savdo logistikasini kuchaytirish ichki bozorning to‘yinishi uchun muhim omil bo‘ladi.

Umuman olganda, baliq mahsulotlari bilan ta‘minlanganlik indeksini iqtisodiy-geografik omillar bilan bog‘lab tahlil qilish hududiy rejalashtirish uchun samarali vosita ekanligi isbotlandi. Kelgusida tadqiqotni suv resurslarining sifat ko‘rsatkichlari, xo‘jaliklarning texnologik darajasi, yem bazasi, ichki va tashqi bozor oqimlari hamda GIS asosidagi kartografik modellashirish bilan boyitish maqsadga muvofiqdir.

#### **Adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 – yil 6 – noyabrdagi PQ-4005-sonli “Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 29 – avgustdagi PQ-4816-sonli “Baliqchilik tarmog‘ini qo‘llab – quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

3. FAO. The State of World Fisheries and Aquaculture 2024: Blue Transformation in Action. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2024.

4. Toshkent viloyati statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzulgan “Toshkent viloyati tumanlari aholisining baliq mahsulotlari bilan ta‘minlanganlik indeksi” hisob - kitob jadvali, 2025.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 – yil 23 – oktabrdagi PF-5853-son Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning – 2030 – yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.

6. World Bank. The Aquaculture Digital Roadmap: Transforming Aquaculture

for Global Prosperity and Sustainability. Washington, DC: World Bank, 2025.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2025 – yil 3 – fevraldagi O‘RQ-1023-son Qonuni. “Oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida”.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 80-son qarori. “O‘zbekiston Respublikasining tabiiy suv havzalarida baliq ovlash qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”.

9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. “Toshkent viloyati doimiy aholisi sonining taqsimlanishi”. 2024-yil 25-yanvar.

10. Garlock T., Asche F., Anderson J., Ceballos-Concha A., Love D.C., Osmundsen T.C., Pincinato R.B.M. Aquaculture: The missing contributor in the food security agenda. Global Food Security. 2022;32:100620.

11. Bjørndal T., Dey M., Tusvik A. Economic analysis of the contributions of aquaculture to future food security. Aquaculture. 2024;578:740071.

12. UN Nutrition. The role of aquatic foods in sustainable healthy diets. Discussion paper. Rome: UN Nutrition, 2021.

UO‘K 338:911.372.32 (575.17)

## **SURXONDARYO VILOYATI URBONIMLARINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI (shaharchalar misolida)**

**Esanov Nazar Amanturdiyevich**

Termiz davlat universiteti Geografiya kafedrasi kata o‘qituvchisi, g.f.f.d., PhD

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati shaharchalarining nomlarida uchrovchi toponimlarning o‘ziga xos jihatlari, geografiyasi, betakrorligi, shaharcha nomlarining shakillanishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar haqida so‘z boradi. Shuningdek, viloyat shaharchalari nomlarining toponimik taqsimlanishi, shaharlarning nomlanishida uchrovchi hududiy farqlar va boshqa shaharchalar nomlari bilan bog‘liq jihatlarni tahlil qilingan.

**Аннотация.** В статье рассматриваются специфические особенности, географическое положение и уникальность топонимов в названиях посёлков городского типа (ПГТ) Сурхандарьинской области, а также факторы, повлиявшие на их формирование. Анализируются распределение топонимических названий населённых пунктов региона, их региональные различия и другие аспекты, связанные с номинацией данных территорий.

**Abstract.** This article examines the specific features, geographic location, and uniqueness of toponyms in the names of urban-type settlements (UTS) in the Surkhandarya region, as well as the factors that influenced their formation. It analyzes the distribution of toponymic names in the region's settlements, their regional differences, and other aspects related to the designation of these territories.

**Kalit so‘zlari.** Surxondaryo viloyati, Qorliq, Botosh, Jobu, Angor, Tallimaron, Xomkon, Tangimush, Passurxi, Qorabo‘yin, Sariosiyo, Uchqizil, Xalqabad, Baxt, Yurchi, Uzun.

**Ключевые слова.** Сурхандарьинская область, Корлык, Ботош, Джобу, Ангор, Таллимарон, Хомкон, Тангимуш, Пассурхи, Карабуин, Сариосие, Учкизил, Халкабад, Бакт, Юрчи, Узун.

**Key words.** Surkhandarya region, Korlyk, Botosh, Jobu, Angor, Tallimaron, Khomkon, Tangimush, Passurkhi, Karabuyn, Sariosiye, Uchkizil, Khalkabad, Bakht, Yurchi, Uzun.